
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 7-8

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL ADABIYOT TA'LIM



Philological research: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 7-8

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, *iqtisod fanlari doktori, professor*

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, f.f.f.d. *(PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Amonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.08.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, *доктор экономических наук, профессор*

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*

Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*

Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*

Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*

Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*

Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*

Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нормат Юлдашев, *к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шоира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.08.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, *doctor of economic sciences, professor*

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, PhD, *associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Amonturdieva, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

МАМАТОВ АБДИ ЭШОНҚУЛОВИЧ
Инсон, тил ва маданият триадаси ёки маданият инсонга нима беради? 7

ASHIRBOYEV SAMIXON
«O‘zbek dialektologiyasi» fani ta’limi mazmuni uyg‘unligi 10

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalarning antropotsentrik lug‘atini tuzish tamoyillari xususida 14

МАМАТОВ АБДУҒОФУР
Фразеологик бирлик тушунчаси талқини ва тадқиқи 18

ELTAZAROV JO‘LIBOY
Gramer kategorilerin türkçenin dilsel doğasina göre yorumlanmasi üzerine 24

ISMOILOVA DILRABO MUHAMMAD QIZI,
HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXONOVICH
Ilmiy paradigma transformatsiyasi hamda konseptual asos 30

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH,
MAHMADIYEV SHAVKATJON SUYUNQULOVICH
Matnning pragmatik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar xususida 34

TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA,
JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA
Baho va darajalanish munosabati 38

ABDIYEV MURODQOSIM
«Davlat tili haqida»gi va u bilan bog‘liq qonunlar ijrosi masalalari xususida 44

МЕНГЛИЕВ БАХТИЁР РАЖАБОВИЧ
Ўзбек лингвистик саноати истиқболлари 50

SHUKUROV OTABEK ULASHEVICH
Globallashuv sharoitida milliy til masalalari 56

FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA
Surxondaryo o‘zbek shevalarida o‘zlashgan so‘zlar 59

DUSTMURODOV MA’RUFJON MANSUR O‘G‘LI
Qadimgi turkiy tildagi markaziy hokimiyat bilan aloqador ayrim
harbiy unvonlar xususida 63

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

OSTONOV O‘TKIR YANGIBOEVICH
Qishloq turizmga oid terminlarning lingvistik tahlili 67

TILLABAYEVA ZILOLA RAXMATILLAYEVNA
Samarqand viloyati qarluq shevalarida olmoshlar 70

TEMIROVA KAMOLA
«O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati»da berilgan
gastronomik birliklarning semantik guruhlanishi 74

KURBONMURATOV ABROR
Ekstremistik matnda muallif belgilari 80

NURALIYEV G‘OLIBJON QURBONBOYEVICH
Taqlid so‘zlar orqali ifodalangan tovush va
harakat-holatning davomiylik semasi
(Tog‘ay murod asasrlari misolida) 83

CHORIYEVA CHAROS SALOMOVNA
Diniy leksika, tasavvufiy leksika va mifologik leksika:
tasnif va talqin muammolari 86

NURIDDINOVA NAFISA MUXIDDIN QIZI
O‘zbek tilida ayrim uzumchilikka oid leksikaning lingvokulturema sifatidagi talqini 89

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QADIMGI TURKIY TILDAGI MARKAZIY HOKIMIYAT BILAN ALOQADOR AYRIM HARBIY UNVONLAR XUSUSIDA

Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy bo'lim boshlig'i

Turk xoqonligida harbiy-ma'muriy mansab, lavozim va unvonlar tizimi, ularning berilish tartibi qanday bo'lganligi masalasini ko'rib chiqishdan oldin, lug'aviy jihatdan qadimgi turklarda «unvon» so'zini ifodalashda qaysi birliklar ishlatilganiga nazar tashlash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'rxun-Yenisey bitigtoshlarida shaxs yoki narsa nomi ma'nosida *at* (ot) leksemasi tilga olinadi: *«oγlan atïm* – o'g'il (yoshlik) ismim» (Y, 45.1); *«Kul tigin är at boltï* – inim Kul Tegin voyaga yetdi (erkaklik nomini oldi)» (KT, 31). «Shu o'rinda ushbu jumlalardagi *at* (ot)ni «unvon» ma'nosini ham ifodalagan deyishimiz mumkin. Jumladan, Kul Tegin bitigtoshida az yoki qirg'iz xoqonini tayinlash voqeasi xoqonlar tilidan bayon qilinar ekan «*Bars bäg ärti, qaγan at bunta biz bärtimiz* (KT, 20) – Bars (ning unvoni) bek edi, xoqon unvonini bunda (unga) biz berdik» shaklida ma'lumotlar uchrab, ular mazmunidan *at* so'zi «unvon» ma'nosini bildirishi ayon bo'lishi bilan birgalikda, unvonlar xoqon tomonidan berilgani ham o'z ifodasini topadi»[1].

Shuningdek, Mo'yun Cho'r bitigida xoqonning o'g'illari tardush va to'las qabilalariga *yabγu* va *šad* etib tayinlaganligi haqidagi o'rinda unvon ma'nosida *at* istilohi tilga olinadi: *«äki oγulïma: yabγu: šad at bärtim* – ikki o'g'limga *yabg'u* va *shad* unvonini berdim» (MCh, 19). «Xoqonlar tilidan keltirilgan «*Turk bäglar turk atïn ïttï, Tabγačïq bäglar, Tabγač atïn tutupan, Tabγač qaγanqa körmiš*» jumlalarini ko'pchilik turkologlar «Turk beklari turk unvonlarini tashladi. Xitoy xizmatidagi (turk) beklar xitoy unvonlarini olib, Xitoy xoqoniga tobe bo'lganlar» shaklida o'girishgan»[2]. *at* so'zi «Devonu lug'otit-turk»da ham uchrab, «ot, ism; laqab, unvon» ma'nolarida izohlanadi: «*bäg aŋar at bärdi* – bek unga unvon berdi» (DLT, I, 107). Mahmud Koshg'ariy, shuningdek, qabilaning ulug'i va boshlig'ini ham *atlïγ* deb atalishini ta'kidlaydi (DLT, I, 107). Qolaversa, Yusuf Xos Hojib *at* va *atau* so'zlarini «ism, nom, unvon» ma'nolarida qo'llaydi: «*Ata ornï atï oγulqa qalïr* – Otaning o'rni va unvoni o'g'ilga qoladi» (QBN, 20_{12}; QBN, 107), «*Qul atï anïn boldï qulqa ataγ* – Qul unvoni – darajasi shuning uchun ham qulga laqab bo'ldi» (QBK, 195_{6}).

Bitigtoshlarda qo'llangan harbiy-ma'muriy istilohlardan biri *čabïš*dir. Qo'shinda vazifador boshliqlaridan birini bildirgan ushbu unvon ko'k turk yozuvlarida ikki joyda *čabïš* shaklida uchraydi. Ulardan birinchisi To'nyuquq yozuvida: *«Bilgäsi čabïsï bänäk ärtïm* – Allomasi, chovushi men o'zim edim» (To'n, 7). Ikkinchisi, Kuli Cho'r yozuvida: *«... Küli čör anča bilgäsi čabïšï ärti* – Kuli Cho'r allomasi, chovushi edi» (KCh, 18). Shuningdek, Kari Cho'r Tegin[3] bitigida *tägin* so'zi bilan birga tilga olingan: *«čabïš tägin oγlï qan tutuγ atïsï* – Chovush Tegin o'g'li xon tutuqning nomi» (KChT, 3-6). Ko'k turklarda *čabïš*lar (chovush) «odatda harbiy masalalarni hal qilishdan tashqari elchi sifatida ham faoliyat yuritishgan. Binobarin, keyinchalik bir qator turkiy sulolalarda bo'lgani kabi xoqonlik davrida ham *čabïš* «qo'mondon, xabarchi» vazifasini bajarib, qo'shni davlatlarga elchi (harbiy maqsadlarda) yuborilgan shaxslarga nisbatan ham qo'llanilgan»[4], shuningdek, «unvon xoqon nomi sifatida ham ishlatilgan»[5]. Mahmud Koshg'ariy *čavuš* istilohini «jangda saflarni tuzatuvchi, dam olish vaqtida askarni zulm qilishdan saqlovchi odam» tarzida izohlaydi (DLT, I, 349). Unvon G'aznaviylar davri manbalarida *čävüš* va *čävüši*[6] shaklida ishlatilgan. Ushbu so'z «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati»da «hudaychi, eshik og'asi, xizmatkor, navkar» ma'nolarida izohlangan (ANATIL, III, 473). Ko'rish mumkinki, bu davrda

[1] Бобоёров Ғ., Ғарбий турк хоқонлигининг давлат тизими. Тарих фанлари док. дис. – Тошкент, 2012. – Б. 171.

[2] Orhon Yazıtları. Kül Tigin, Bilge Kağan, Tunyukuk. – Istanbul: Yıldız Yayınları, 2003. – S. 41.

[3] Kari Cho'r Tegin bitigi XXRning Xian provinsiyasidagi "Tang West Market Musuem"da saqlanadi. Bitig Yaglakar xon Chabish Teginning o'g'li Xon tutuqning jiyani Bo'gu Bilga Tangri xoqonning kichik qardoshi Kari Cho'r Teginga tegishli. Bitigtoshni turkiy ochunga tanitishda turk olimi Chingiz Alyilmazning xizmati katta.

[4] Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... – S. 93; Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097–1231). – М.: Наука, 1986. – С. 91.

[5] Erkoç H.İ. Eski Türklerde Devlet Teşkilatı... – S. 179, 181, 188.

[6] Köprülü M.F. Eski Türk Unvanlarına Ait Notlar, Türk Hukuk ve İktisat Tarihi Mecmuası, c. II, – Istanbul,1939. – S. 363.

ham istilohning qadimgi turkiy tildagi ma’nolari saqlangan. *čabïš* ko‘k turklardan boshlab deyarli barcha Turkiy suloalarda turli xil vazifalarni o‘z zimmasiga olgan harbiy lavozim egasi sifatida maydonga chiqadi.

Asosan O‘rxun-Yenisey bitigtoshlarida tilga olingan *šad* leksemasi dastlabki turkiy davlatlardagi harbiy qo‘shin boshlig‘i, tobe hududlar noiblariga beriluvchi harbiy unvon sifatida ko‘zga tashlanadi: *«özüm Tarduš bodun üzä šad ärtim* – o‘zim Tardush xalqi ustidan shad edim» (KT, 17); *«ulayu šadapït bäglär ... ataman tarqan*, *Tonyuquq, boyla baya tarqan* – keyin shadapit beklar ... ataman Tarxon, To‘nyuquq, Bo‘yla Bag‘a Tarxon» (BX, 14). Shuningdek, To‘nyuquq matnida yetti yuz kishini birlashtira olgan shaxs *šad* unvoni bilan yuritilishi aytiladi: *«yäti yüz kišig ... uduzuγma uluγï šad ärti* – yetti yuz kishini uyushtiradigan ulug‘i shad edi» (To‘n, 5-6). Istiloh To‘las Shadning balbalida asar nomi (*Tolus Šad* shaklida) bilan tilga olinadi. Xoqonzodalar muayyan hudud yoki qavmga mas’ul etib tayinlanganda ularga *šad* unvoni berilgan. Ushbu fikrni quyidagi parcha dalillaydi: *«äki oγulïma: yabγu: šad at bärtim* – ikki o‘g‘limga *yabg‘u* va *shad* unvonini berdim» (MCh, 19). Ushbu unvondorlar qo‘l ostidagi qabilalarning nomi mazkur unvon nomi bilan birga ishlatilgan. Masalan, *«sü baši Inäl qaγan Tarduš šad barzun tädi* – lashkarboshi Inal xoqon Tardush shadi borsin, dedi» (To‘n, 31). *šad*lar turli darajada mustaqillikka ham ega bo‘lishgan. «Xitoy yilnomalarida ashina turklarining kelib chiqishi bilan aloqador bir afsonaga ko‘ra, Tukyue (turk)larning ajdodlaridan birining nomi *Natuli shad* edi. Natulidan keyin taxtga uning kichik xotinining o‘g‘li keladi va u ham o‘ziga *Asyan shad* unvonini oladi»[1].

Shuningdek, bitiglarda *šadapït* istilohi bilan anglashilgan unvon ham qayd etiladiki, u asosan «qanotdagi harbiy amaldor»[2] ma’nosida tilga olinadi: *«ulayu šadapït bäglär ... ataman tarqan*, *Tonyuquq, boyla baya tarqan*» (BX, 14). Ushbu unvonli amaldorlar har doim oliy hukmdorning yonidan o‘rin olgan: *«Sabïmïn tükäti äšidgil: ulayu ini yigünüm, oγlanïm, biriki oγušum bodunum, biriyä šadapït bäglär* – So‘zimni tugal eshitgil! Keyinimdagi ini, jiyanim, o‘g‘il(lar)im, ittifoq urug‘im – xalqim, o‘ngdagi shadapit beklar, so‘ldagi tarxonlar, buyruq beklari» (KT, 1). Ushbu unvon ilk marta xoqonlik tarixiga tegishli dastlabki manbalardan bo‘lmish sug‘d tilida bitilgan Bugut bitigtoshida *š’δpyt* shaklida tilga olingan (B, II-2). «V.Radlov ushbu so‘zni *šad-apa-t*, A.Gaben esa *šadpit* shaklida o‘qiydi (*-pit* ni forscha *-pati* bilan aloqalantiradi)»[3]. S.Malov Kul Tegin bitigtoshidagi *šadapït bäglär* birikmasini *shad va apa boshlig‘i*, Bilga xoqon bitigtoshidagi shunday birikmani *shadapit begi* shaklida o‘giradi.

Manbalarda hukmdorlar *qan* istilohi bilan ham ifodalangan. Ushbu unvon ayrim o‘rinlarda xoqon darajasiga tenglashtirilgan. *qan* unvoni G‘arbiy xunlar davridan beri va islomning qabul qilinganidan keyin ham ishlatilgan harbiy-ma’muriy-siyosiy unvonlardan biri sanalgan. Ushbu unvon To‘nyuquq bitigtoshida quyidagicha ifodalangan: *«Turk bodun qanïn bolmayïn Tabγačda adrïltï, qanlantï* – Turk xalqi xoni bilan bo‘lmayin Xitoydan ayrildi, xonli bo‘ldi» (To‘n, 2). *«Täŋri anča tämiš ärinč qan bärtim qanïŋïn qodup ičikdiŋ* – Tangri shunday depti, shubhasiz: «Xon berdim, xonni tashlab ketib, (Xitoyga) bo‘ysunding» (To‘n, 2-3). Keyingi gapdagi yaratguvchi – Tangri tilidan aytilgan «*qan bärtim*» birikmasidan «xon»ga «xoqon» kabi Tangrining yerdagi xohish-irodasini ifodachisi sifatida qaralganini kuzatish mumkin. Bundan *qan* ham *qaγan* kabi qadimgi turkiylar tomonidan qisman ilohiylashtirilgan degan xulosaga kelish mumkin.

qaγan va *qan* unvonlari shakl va ma’no jihatidan bir-biri bilan bog‘liqligi yoki mutlaqo turli ma’noga ega bo‘lgan boshqa-boshqa so‘zlar ekanligi haqida turli fikrlar ilgari surilgan. Kul Tegin, Bilga Xoqon matnlarida turk hukmdorlari uchun faqat *qaγan* unvoni ishlatilgan: «*öl töruda öza äčim qaγan ölurti* – o‘sha to‘ra (qonun) bo‘yicha amakim xoqon (bo‘lib taxtga) o‘tirdi» (KT, 16). To‘nyuquq bitigida yuqoridagi ikki bitigdan farqli o‘laroq turk, shuningdek, qirg‘iz hukmdori uchun *qan* istilohi ishlatilgan. To‘nyuquq bitigiga ko‘ra ko‘k turklarga bo‘ysungan qirg‘izlarning hukmdorlari ham muayyan o‘rinlarda *qaγan* (To‘n, 20) va *qan* (To‘n, 28) deb atalgan.

Yusuf Xos Hojib *xaqan* unvonini yurt boshlig‘i sifatida ishlatadi*:* «*Ažunda čavï bardï χaqan küši* – Xoqonning shuhrati dunyoga yoyildi» (QBN, 20_4; QBN, 99). *xan* istilohini esa O‘rda, Tabg‘ach, Turk hukmdorlariga nisbatan qo‘llaydi: «*Nägü tär äšitgil uč ordu χanï, tözü älkä yaŋzap söz aymiš köni* – U O‘rdu xoni nima deyishini eshitgin, elga moslab to‘g‘ri so‘z aytgan kishi» (QBK, 223_{17}; QBN, 2220). Pandnoma bag‘ishlangan Bug‘raxonga nisbatan ikki o‘rinda *xaqan* va *xan* istilohlari qo‘llangan: «*Buγra Qara Xaqan* – Bug‘ro Qora Xoqon» (QBK, 216); «*Bu Buγra χan vaqtï ičrä anï, yämä χan tilinčä bu aytmiš munï* – Bu kitob Bug‘roxon davrida, xon tilida yozildi» (QBK, 4_{14}). «O‘g‘uz xoqon» dostonida *Ko‘r(Go‘r) xon, Kuzxon* va *O‘rxon* nomlari mavjud. *Ko‘rxon* turkiylar va mo‘g‘ullar tomonidan ishlatilgan mushtarak unvondir. XII asrda Markaziy Osiyoga bostirib kirgan

[1] Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах... – С. 221; Liu Mau-Tsai. Çin kaynaklarına göre... S. 15-16; Taşağıl A. Gök-Türkler. I... – S. 11; Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги... – Б. 103.

[2] Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... – S. 2–60; Gömeç S. Kök Türkçe yazılı belgelerde ...– S. 129-142.

[3] Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri... – S. 42.

G‘arbiy Liao qoraxitoylari (qitaniylar)ning rahnamosi Go‘rxon edi. «Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixida» xitoycha talqinlarga ko‘ra, *Go‘rxon* xitoychada *Huandi*, ya’ni «butun dunyo imperatori» ma’nosini anglatadi»[1].

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida Afrosiyobning o‘g‘illarini *xan,* Afrosiyobni esa *xaqan* nomi bilan tilga oladi (DLT, I, 94). «Taryat yozuvida Uyg‘ur xoqonligining so‘nggi xoqoni *Özmiš xaqan* emas, *Özmišxan* tarzida tilga olingan»[2]. Shuningdek, «qoraxoniy, qipchoq va qimaqlarning boshliqlari ham *xan* deb ham yuritilgan»[3]. Bu holat va «Qutadg‘u bilig»dagi unvon bilan bog‘liq qaydlar keyingi davrlarda «xon»-ning «xoqon»ga qaraganda qisman quyiroq darajani egallaganini ko‘rsatadi. Aytib o‘tish kerakki, «Xoqoniya» nomi bilan tanilgan Qoraxoniylar davlatida bir vaqtning o‘zida ikkita nom ishlatilgan va ikkala nom ham bir xil ma’noga ega»[4]. Shuningdek, ayrim o‘rinlarda keyingi davr turk davlatlarida *xan* va *xaqan* istilohlarining teng ishlatilishini ko‘rish mumkin. Ta’kidlash kerakki, hukmdorlar rasmiy ravishda saltanatdan tashqarida yoki tarixchilar solnomalarida *xan*, saroy ichidagi oliy hukmdorga qilingan murojaatlarda esa *xaqan* ishlatilgani holatlari ko‘p uchraydi. *Xan (xon)* hozirgi o‘zbek tilida (1) turkiy va mo‘g‘ul xalqlari hukmdorlari unvoni; (2) xonlik qilgan shaxs nomiga qo‘shilib, unvonni ifodalaydi; (3) erkak va ayollar ismiga qo‘shilib, hurmatni ifodalaydi (O‘TIL, IV, 410). Ko‘rish mumkinki, asosan leksemaning birinchi va ikkinchi ma’nolari badiiy uslubda, tarixiy mazmundagi matnlarda, uchinchi ma’nosi esa jonli so‘zlashuv tilida (shuningdek, yozma nutqda) qo‘llaniladi.

Qadimgi turk siyosiy-ijtimoiy tuzumiga ko‘ra, oliy hukmdor *qaγan* istilohi bilan atalgan: *«Qaŋïm qaγan yäti yägirmi ärin tašïqmïš* – Otam xoqon o‘n yetti er bilan (chetga) chiqib ketgan» (KT, 11); *«Täŋri-täg täŋri yaratmïš Türk Bilgä qaγan sabïm* – Tangriday tangri yaratmish turk Bilga xoqon nutqim» (BX, 1). Kelib chiqishi juda qadimgi bo‘lgan «*qaγan* harbiy-siyosiy-ma’muriy unvoni «turkiy qabilalarning saylangan mustaqil yetakchisi» ma’nosini anglatadi»[5]. Manbalarga ko‘ra, «istiloh Juan-juan hukmdorlariga nisbatan ham qo‘llanib, ushbu sulolaga oid hujjatlarda qayd etilgan»[6]. Yenisey bitiglarida *qaγan* istilohi mavjud emas, uning o‘rnida *qan* istilohi qo‘llangan. Buning boisi shundaki, «bitigtoshlar mualliflarining xoqonlik kishisi emasligi va qabila boshliqlari uchun *qan* istilohining kifoya qilganligidir»[7]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *qaγan* istilohi *xoqon* shaklida «qadimgi turkiy va mo‘g‘ul hukmdorlariga beriladigan eng oliy unvon va ushbu unvonga ega bo‘lgan shaxs» sifatida izohlangan (O‘TIL, IV, 417). Tarixiy o‘zbekcha matnlarda ham *qaγan* va *qan* so‘zlari ko‘plab uchraydi. J.Kloson «*qaγan* va *qan* istilohlari bilan anglashilgan unvonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni inkor etmagan holda ular o‘rtasida daraja nuqtayi nazaridan farq, ya’ni – «yuqori va quyi»lik borligini ko‘rsatadi»[8]. Ma’lumki, Bumin 552-yilda Turk xoqonligiga asos solgach, unga *qaγan* unvoni berilgan. Keyinchalik ushbu unvon uyg‘ur[9], qirg‘iz, turk, xazarlar[10], shuningdek, avar va bulg‘orlar tomonidan ishlatilgan.

qaγan keng huquqlarga ham ega bo‘lib, osoyishtalik paytida u davlat boshqaruviga rahbarlik qilar, saroy va davlat boshqaruvchilari (*buyruq* – «vazir») bilan birga jamiyat va xo‘jalik hayotini saqlash, davlatga taalluqli muhim masalalarni kengashda muhokama qilish tashabbuskori bo‘lish barobarida, jang vaqtida qo‘shinga qo‘mondonlik qilgan va shu tariqa, favqulodda huquqlarga ega bo‘lgan. Davlat va xalq manfaatlariga layoqatsiz xoqonni almashtirish qoidalari davlatning maxsus shartlari va marosimlari bilan belgilangan. Qadimgi turklarning davlat va hokimiyat borasidagi tafakkuriga ko‘ra, Tangri *qaγan*ga *uluγ* – rutba yoki *qut* – tol’e bergan hamda ushbu fazilatlar sohibiga so‘zsiz itoat etish kerak deb inonilgan. Bu fikrni Kul Tegin bitigidagi ushbu parcha dalillaydi: «*Üzä Kök Täŋri asra yaγïz yär qïlïnduqda ikin ara kiši oγlï qïlïnmïš. Kiši oγlïnta üzä äčüm apam Bumïn qaγan, İstämi qaγan oturmïš* – Yuqorida ko‘k osmon, pastda qaro yer yaratilganda ikkisining o‘rtasida inson o‘g‘li yaratilgan. Inson bolalariga mening ota-bobom Bumin xoqon va Istami xoqon hukmron bo‘lgan» (KT, 1).

Bitigtoshlarda *tuγčï* unvoni ham uchraydiki, u ikki: «bayroqdor» va «xoqonlik nog‘orasini chaluvchi» ma’nolarida tilga olinadi. Ushbu so‘z *tuγ* va *-čï* qo‘shimchasining qo‘shiluvidan yasalib, qadimgi

[1] Pelliot P. Louis Hambis, Histoire des campagnes de Genghis Khan: Chengwou ts’in-tcheng lou, (Leiden: E.J. Brill, 1951. – S. 231.

[2] Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri. International Journal of Humanities and Education, 2018 – S. 276.

[3] László F. Kagan ve Ailesi, Türk Hukuk Tarihi Dergisi, I, – Ankara, 1944. – S. 39.

[4] László F. Kagan ve Ailesi, Türk Hukuk Tarihi Dergisi, I, – Ankara, 1944. – S. 39.

[5] Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972. – P. 630

[6] Yıldırım K. Bozkırın Yitik Çocukları Juan-Juan’lar. – Istanbul: Yeditepe Yayınevi, 2015. – S. 78-79.

[7] Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri. International Journal of Humanities and Education, 2018 – S. 273.

[8] Clauson G. An Etymological Dictionary... – P. 630.

[9] Caferoğlu A. Tukyu ve Uygurlarda Han Unvanları. Türk Hukuk ve İktisat Tarihi Mecmuası, I, – Istanbul, 1931. – S. 109-119.

[10] Dunlop D.M. The History of the Jewish Khazars, ABD: Princeton University Press, 1954. – S. 111.

turk tilidagi *tuγ* so‘zi biz yuqorida qayd etgan ikki xil ma’noda qo‘llangan. H.Shirin User ham *tuγčï* so‘zini «xoqonlik nog‘orasini chaluvchi zobit; bayroqdor» ma’nolarida izohlagan[1]. Istiloh «Qutadg‘u bilig»da ham bitigtoshlardagi shakl va ma’noda tilga olinadi.

Bitigtoshlarda *boryučï* – «burg‘u chaluvchi»unvoni ham tilga olinib, u qo‘shinda muhim vazifador shaxs sifatida qo‘mondonning buyrug‘iga binoan turli ovoz, tovushlar bilan qo‘shinni harakatlantirgan. Unvon *boryu* va *-čï* qo‘shinlarining qo‘shiluvidan shakllangan. Unvon quyidagi parchada tilga olingan: *«tuγčï boryučï yaγïz čör tügragi* – tug‘chi, burg‘uchi, Yag‘iz Cho‘rning tug‘rasi» (Tevsh, 1-2). Qadimgi turklarda *tuγčï* va *boryučï* (burg‘u chaluvchi) vazifasidagilar yuqori darajali burch sohiblari bo‘lganligi ta’kidlangan.

Xoqonzoda yoki xonzodalarga tegishli yuqori darajali harbiy-ma’muriy unvonlardan biri *tägin*dir. Faqatgina hukmron sulola o‘g‘illariga munosib ko‘rilgan ushbu unvon Bilga xoqon bitigida tilga olinadi: *«Bilgä qaγan b(itigin) Yolluγ tägin bitidim* – Bilga xoqon bitigini (men) Yollug‘ Tegin yozdim» (BX, XI). Mahmud Koshg‘ariy ushbu istilohni *tägin* shaklida qo‘llab, 1. «qul» va 2. «xoqoniya shahzodalarining laqabi» sifatida izohlaydi (DLT, I, 391). «*tägin*larga qo‘shin qo‘mondonligi yoki biror viloyat ma’murligi berilganda ular *yabγu* yoki *šad* unvonini olishgan»[2]. *tägin* unvonining davrlar va hududlarga muvofiq ba’zi o‘zgarishlarni boshdan kechirganligi ko‘rinib turibdi. Sulola a’zolarini boshqa quyi tabaqa (qul)lardan farqlash uchun «*tägin* so‘zinining boshiga uning fe’l-atvori va mavqeyiga muvofiq epitetlar qo‘shilib, *Čaγrï Tägin, Küč Tägin, Alp Tägin, Qutluγ Tägin, Kümüš Tägin, Böri Tägin, Tuγ Tägin, Toŋa Tägin, Arslan Tägin, Toγrul Tägin, Yinäl Tägin, Yïγan Tägin, Qara Tägin* kabi ismlar paydo bo‘lgan»[3].

Mahmud Koshg‘ariyga ko‘ra, «ushbu unvon xoqonzodalarga laqab bo‘lib qoldi. Xoqon bolalarining eng kichik vakillari va o‘rta sinfning hurmatli kishilariga *ükä tägit* nisbasi qo‘llanilgan. Olimning fikriga ko‘ra, «uka» so‘zi Iskandar zamonida Zulqarnayn bilan turklarning bitishuvidan oldin ularning oldingi qo‘shinlari orasidagi to‘qnashuvda yuzaga kelgan» (DLT, I, 337). Ko‘k turk yozuvlarida uchraydigan *Kül Tägin, Toŋa Tägin, Yolluγ Tägin*[4], ularning kelib chiqishi afsonasida tilga olinadigan *Or Tägin* va uyg‘urlarning inqirozga yuz tutishida uchraydigan *Mäŋlig Tägin*[5] va Axun tangalarida zarb etilgan tegin nomlari[6] islomgacha bo‘lgan turk davlatlarida sulola vakillari uchun *tägin* unvonining tez-tez ishlatilganligini ko‘rsatadi. Istiloh Qoraxoniylar, G‘aznaviylar[7] va Saljuqiylar[8] sulolalarida ham qo‘llangan. Ushbu sulola vakillarining ismlarida ham *tägin* so‘zi shaxs nomi sifatida qo‘llanilgan. *Čaγrïtägin, Säbüktägin (Säviktägin)* kabi. Turk xoqonligining markaziy boshqaruvida oliy bosh hukmdor *qaγan*, xonadon a’zolaridan tayinlangan ma’murlar – xoqonzodalar – *tägin*, *šad* deb atalgan.

Shartli qisqartmalar

BX – Bilga xoqon bitiktoshi

DLT – Devonu lug‘atit-turk

DTS – Drevnetyurkskiy slovar

KCH – Kulicho‘r bitiktoshi

KT – Kul Tegin bitiktoshi

MCH – Mo‘yun Cho‘r bitiktoshi

NAL – Navoiy asarlari lug‘ati

O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati

QBH, QBK – Юсуф Хос Ҳожиб. «Қутадғу билиг» С. Қоҳира нусхаси (Dāru’l-kutub va’l-vasāiki’l-kavmiyya tasavvuf turki 168. Nr)

QTT – Qadimgi turkiy til (G‘.Abdurahmonov va b. asari)

To‘n – Tunyuquq bitiktoshi

[1] Şirin H. Eski Türk Yazıtları... – S. 380.
[2] Altheim F. Geschichte der Hunnen I, – Berlin, 1960. – S. 47.
[3] Ömer Soner H. “Tegin”, DİA, XL, – Istanbul. 2011. – S. 312.
[4] Donuk A. Eski Türk devletlerinde ... – S. 48.
[5] Cüveynî. Tarih-i Cihan Güşâ, I, çev. Mürsel Öztürk, Ankara. 1999 – s. 41; Bahaeddin Ö. Türk Mitolojisi, – Ankara. 1971. – S. 61.
[6] Altheim F. Geschichte der Hunnen ... – S. 49.
[7] Ergin A. Karahanlı Hanedan Üyelerinin Gazneliler ve Selçuklularla Sıhriyeti, Manas Sosyal Araştırmalar Dergisi, IV/5, 2015. – S. 392-408.
[8] Mehmet A. Alp Arslan Zamanı Selçuklu Saray Teşkilatı ve Hayatı, A.Ü. DTCF Dergisi, IV, 1968. – S. 8.

Rezyume. Qadimgi turk bitigtoshlarida qayd etilgan xoqonlikning harbiy tizimiga doir istilohlarning salmoqli ulushini unvon, lavozim nomlari tashkil etadi. Biz ushbu maqolada O‘rxun-Yenisey bitigtoshlarida aks etgan hujum markaziy hokimiyat bilan bog‘liq unvonlarning semantik-funksional va etimologika tahlilini yoritdik.

Resume. Names of titles and positions make up a significant part of the revolutions related to the military system of the Khaganate recorded in ancient Turkic chronicles. In this article, we covered the semantic-functional and etymological analysis of the titles related to the attack central authority reflected in the Orkhun-Yenisei tombstones.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QISHLOQ TURIZMGA OID TERMINLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Ostonov O‘tkir Yangiboevich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Terminshunoslik tarixining 1960 -yillar boshlariga qadar davom etgan dastlabki davrida «terminosistema», «terminologik maydon» kabi bir qator asosiy tushunchalar shakllantirilgan. Chunonchi, D.Sageder ta’kidlaganidek: «Jadal taraqqiyot va texnologiyalarning rivoji nafaqat yangi tushunchalarni nomlashni, balki terminlarni qo‘llash borasida kelishuvni ham talab etardi. Amaliy natija sifatida terminologik ishlar muayyan bir ixtisoslashgan sohalar (mutaxassisliklar) doirasida tashkil qilina boshladi»

Professor S.D.Shelov tomonidan taklif qilingan ta’rif, bizningcha, quyidagi tamoyillarga muvofiq dolzarbdir:[1]

a) umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, turli yillarda etakchi tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan termin mohiyatiga doir ta’riflarni xulosalaydi;

b) terminlar muayyan ilmiy va kasbiy bilimlarga ega shaxslarning ilmiy-amaliy faoliyatida yuzaga keluvchi, bevosita ular tomonidan qo‘llaniluvchi alohida leksik guruhga mansub bir ma’noga moyil so‘z sifatida o‘ziga xoslik kasb etadi;

v) terminologik birlikning muayyan vaziyatda qo‘llanilishi mutaxassislarning kasbiy muloqot, kommunikativ imkoniyatlari samaradorligini oshiradi, ularning bir-birini to‘g‘ri tushunish muhitini shakllantiradi.

N.V.Serbinovskaya ta’kidlaganidek, «termin boshqa turdosh (o‘xshash) hodisalar[2] – nomenlar, professionalizmlar, terminoidlar va h.k. lardan farqlanadi». R.Doniyorovning ishida «Termin bilan professionalizmlar o‘rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasi va nomidir. Professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko‘p hollarda ilmiy uslubdagi tilda keng tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat’iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir deb qayd etilgan.[3]

Bugungi kunda tilshunoslikda termin va terminologiya bilan aloqador bo‘lgan terminotizim, terminosfera singari tushunchalar tez-tez qo‘llanilmoqda. SHu ma’noda, «umume’tirof etilgan ta’rifning mavjud emasligi sababli har bir tadqiqotchi o‘zining «ishchi» ta’rifi va izohini qayd etmoqda» .

Lingvistik terminologiyaga ko‘ra «terminosfera» tushunchasining paydo bo‘lishiga asosiy omil hisoblanuvchi tilshunoslik ham har qanday boshqa fan singari dinamik, o‘z-o‘zini yangilovchi va uzluksiz rivojlanuvchi fandir. Shunga muvofiq ravishda ilmiy tushunchalar tizimi inson bilim darajasini mukammal, aniq va ob’ektiv baholay olish uchun uzluksiz rivojlanish va o‘zgarish bosqichidadir. Har qanday rivojlanayotgan fan ilmiy tushunchalar tizimining o‘zgarishi

[1] Шелов С.Д. Лингвистический анализ и проблемы перевода туристических терминов на английском языке: Дисс. канд. наук. – Т., 2016. – С. 40.

[2] Сербиновская Н.В. Функциональность терминов и понятий терминосферы «Терминосфера туризма»: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Краснодар: 2017. – С. 20.

[3] Doniyorov R. O’zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1997. – B. 57.